

## O'QUVCHILARDA NUTQIY ETIKETNI SHAKLLANTIRISH

**Hikmatova Gulandom**

Buxoro viloyati Buxoro tumani Maktabgacha va maktab ta'lifi bo'limi tasarrufidagi 6- umumiy o'rta ta'lim maktabining Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Pedagog muomala orqali qanday axborot olishni qarab chiqar ekanmiz o'quvchining shaxsi haqidagi axborotning muhimligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bevosita muomala g'oyat hilma-hil sharoitlarda va ko'rinishlarda o'rganishga imkon beradi. U shaxsnинг xulq-atvorida namoyon bo'ladigan yorqin va eng ta'sirchan tashqi belgalarni qayd etish bilangina kifoyalamanmaydi. Har bir o'qituvchi bolaning Yoshi va uning darajasi qanday sharoitda ekanligini inobatga olib, u bilan nutqiy jihatdan to'g'ri etiket olib bormog'i lozim. Shundagina o'quvchilarda nutqiy etiket qoidalarni shakllantirishimiz mumkin. „Muomala madaniyati” nomli darslikda “Etiket – muomala madaniyatining zamonaviy ko'rinishi sifatida” o'rganilib, etiketning turlari tahlil etilgan.<sup>1</sup> Etiket keng qamrovli tushuncha bo'lib, u, ma'lum ma'noda, umumbashariy miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarni o'z ichiga oladi. Namunaviy nutqning asosiy talablaridan yana biri aytilmoqchi bo'lgan muddaoning tinglovchiga to,,g,,ri va aniq borib yetishi, ma''lum ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi hamda bu masalalarning amalga oshirilishida nutq oldiga ayrim talablar qo,,yiladi, bu esa kommunikativ aspekt muammolaridan hisoblanadi. Nutkiy etiket deyilganda, so,,zlashuv odobi qoidalarni tartibga soluvchi milliy, o,,ziga xos stereotiplar, suhbatdosh bilan aloqa o,,rnatish, aloqani tanlangan tonallikda davom ettirish yoki tugatish uchun qabul qilgan formulalari nazarda tutiladi. Pedagog o'quvchilar bilan muomala qilar ekan, juda mayda detallarni ham anglab olishga qodir bo'ladi, bu detallar sirdan qaraganda unchalik ahamiyatlari bo'lmay shaxsdan sodir bo'layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlar ko'rinishlarining alomatlari bo'lishi ham mumkin. Bu hol shaxsni chuqur tushunish imkonini berib, tashqi qatlam ostida boshqa usullar bilan aniqlab bo'lmaydigan narsalarni topish imkonini beradi. Bolalar bilan bevosita muomala pedagog jamoadagi yoki ayrim o'quvchilardagi biron bir voqeanning rivojlanish jarayonida o'rganish zarur bo'lganda ro'y berayotgan hodisalar va jarayonlarning sabab-oqibat aloqalarini payqab olishdan, ularning tuzilishi haqida fikr yurita bilishdan iboratdir.<sup>2</sup>

Umuman olganda, har bir o'quvchi alohida olam, alohida dunyo egasi. Endigina rivojlanib kelayotgan Nutq etikasi ilo yoshlarga to'g'ri ta'lim bersak, ular ham bu fanning naqadar hayotiyligiga, ayniqsa millatimizning yanada tanilib borishiga yordam bergen bo'lamiz.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

- 1..Мўминов С. Ўзбек мuloқot хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фан. докт.... дис.автореферати . – Тошкент, 2000. –46 б. 3.Белов В. Лад: Очерки о народной эстетике. М.: Молодая Гвардия, 1988.
- 2.Мўминов С. Ўзбек мuloқot хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фан. докт.... дис.автореферати . – Тошкент, 2000. –46 б. 3.Белов В. Лад: Очерки о народной эстетике. М.: Молодая Гвардия, 1988.

<sup>1</sup> Мўминов С. Ўзбек мuloқot хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фан. докт.... дис.автореферати . – Тошкент, 2000. –46 б. 3.Белов В. Лад: Очерки о народной эстетике. М.: Молодая Гвардия, 1988.

<sup>2</sup> Международный научный журнал № 10 (100), часть1 «Научный Фокус» Февраля, 2024 367